

## YALPI HUDUDIY MAHSULOT




Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2020-yilning yanvar-sentabrda Andijon viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YaHM) hajmi joriy narxlarda 26 017,7 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2019-yilning yanvar-sentabri bilan taqqoslaganda 3,4 % ga o'sdi. YaHM deflyator indeksi 2019-yil yanvar-sentabridagi narxlarga nisbatan 111,8 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YaHMning shakllanishida Andijon viloyatining qo'shgan hissasi 6,4 % ga yetdi.



### Yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari


		Mlrd. so'm		2019-yil yanvar- sentabriga nisbatan, % da
		2019-yil yanvar- sentabr	2020-yil yanvar- sentabr	
	<b>I. YaHM</b>	<b>22 521,2</b>	<b>26 017,7</b>	<b>103,4</b>
	<i>Shu jumladan:</i>			
	Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	21 791,2	24 679,6	103,4
	Mahsulotlarga sof soliqlar	730,0	1 338,1	103,5
	<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>	<b>21 791,2</b>	<b>24 679,6</b>	<b>103,4</b>
	Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	9 772,0	10 682,8	103,8
	<b>Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)</b>	<b>5 812,1</b>	<b>6 806,8</b>	<b>105,1</b>
	sanoat	4 720,2	5 402,8	105,1
	qurilish	1 091,9	1 404,0	105,3

		Mlrd. so'm		2019-yil yanvar-sentabriga nisbatan, % da
		2019-yil yanvar-sentabr	2020-yil yanvar-sentabr	
	<b>Xizmatlar</b>	6 207,1	7 190,0	101,0
	savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1 447,0	1 611,7	98,6
	tashish va saqlash, axborot va aloqa	1 197,8	1 396,4	106,1
	boshqa xizmat tarmoqlari	3 562,3	4 181,9	100,2

Aholi jon boshiga hisoblangan YaHM 8 259,9 ming. so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 1,3 % ga yuqoridir.



## Yanvar-sentabr oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YaHM hajmi va o'sish sur'atlari








Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YaQQ) hajmi umumiy YaHMning 94,9 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 5,1 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligining YaHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 43,3 % ni, sanoat tarmog'i 21,9 % ni, qurilish 5,7 % ni va xizmatlar sohasi 29,1 % ni tashkil qildi.




### Yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)


		2019-yil	2020-yil
	<b>I. YaIM, jami</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
	<i>shujumladan:</i>		
	Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	96,8	94,9
	Mahsulotlarga sof soliqlar	3,2	5,1
	<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
	Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	44,8	43,3
	<b>Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)</b>	<b>26,7</b>	<b>27,6</b>
	sanoat	21,7	21,9
	qurilish	5,0	5,7
	<b>Xizmatlar</b>	<b>28,5</b>	<b>29,1</b>
	savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	6,6	6,5
	tashish va saqlash, axborot va aloqa	5,5	5,7
	boshqa xizmat tarmoqlari	16,4	16,9





## Yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)



YaHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida – 103,8 % (YaHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 43,3 %), sanoatda – 105,1 % (21,9 %), qurilishda – 105,3 % (5,7 %), xizmatlar sohasida – 101,0 % ni (29,1 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 98,6 % (6,5 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 106,1 % (5,7 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 100,2 % dan (16,9 %) iborat bo'ldi.




## Yanvar-sentabr oylarida YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



2020-yilning yanvar-sentabrida iqtisodiyotning “Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi”, “Sanoat” kabi tarmoqlari YaHMning mos ravishda 1,7 f.p. (2019-yilning yanvar-sentabrida 1,4 f.p.) va 1,1 f.p. (2019-yilning yanvar-sentabrida 2,6 f.p.) ga o'sishiga hissa qo'shdi. Mahsulotlarga sof soliqlarning hisobiga YaHMning 0,1 f.p. ga o'sishi ta'minlandi (2019-yilning yanvar-sentabrida 0,2 f.p.).



## 2020-yil yanvar-sentabr oylarida YaHM o'lishida tarmoqlarning hissasi (jamiga nisbatan % da)



2020-yil yanvar-sentabrda YaHM deflyatori indeksi 2019-yil yanvar-sentabridagi narxlarga nisbatan 111,8 foizni tashkil etdi. YaHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari qurilishda – 122,1 % va xizmatlarda – 114,7 % qayd etildi.



## Yanvar-sentabr oylarida YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)

